



XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 20 - may

VI-53-47-11-157-K/22

Qo'shtepa tuman hokimligi

Qo'shtepa tumanida 2022-yilda "Obod qishloq" davlat Dasturini amalga oshirish bo'yicha dastlabki manzilli ro'yhatni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5048-sonli qaroriga asosan Qo'shtepa tumanida 2022-yil uchun "Obod qishloq" Dasturiga **Langar** hamda **Yangiariq** mahalla fuqarolar yig'inlari tanlab olindi.

Dastur doirasida mahalalarda yashovchi aholining turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurish va ta'mirlash, xududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini bajarish rejalashtirilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun dastlabki qiymati **20 mlrd 229 mln. so'm** mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Qurbonovning "Tumanda 2022-yilda "Obod qishloq" davlat Dasturini amalga oshirish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar to'g'risida"gi axborotidan kelib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Qurbonovning "Tumanda 2022-yilda "Obod qishloq" davlat Dasturini amalga oshirish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'shtepa tumanida 2022-yilda "Obod qishloq" davlat dasturini amalga

oshirish bo'yicha dastlabki manzilli ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (B.Qurbonov)ga:

- "Obod qishloq" Dasturi doirasida tumanda amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash;

- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (Y.Qosimova) va "Istiqbol yo'li" gazetasi bosh muxarriri (U.Xudoyberganova)lar tumanda "Obod qishloq" Dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha" doimiy komissiya raisi (A.Nabiev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.V.Novikov

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining
2022 yil 20 maydagi
VI-53-47-11-157-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Obod Qishloq” Dasturi doirasida 2022-yil Qo'shtepa tumanida qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan mahalla fuqarolar yig'inlarining MANZILLI RO'YHATI

№	Hudud (viloyat) nomi	Tuman nomi	MFY nomi	Qishloq (aholi punkti) nomi	Aholi soni (nafar)	Xonadon soni	Biriktirilgan loyiha tashkilot nomi	Sektor raqami	Viloyatdagi ma'sul (sektor rahbari)	Shahar tumandan ma'sul (sektor rahbari)
	Jami:				6958	1348				
1	Farg'ona	Qo'shtepa	Langar	Langar	3261	562		3		Sh.Mavlonov
2	Farg'ona	Qo'shtepa	Yangiariq	Yangiariq	3697	786		4		Z.Mirzaev